

Surxondaryoda 2021 yil faollari taqdirlandi



Surxondaryoda 2021 yil faollari taqdirlandi

Surxondaryoda 2021 yilda jamiyat hayotida faol ishtirok etib, yoshlarga ibrat bo'lib kelayotgan nuroniylar, ilm-fan, madaniyat, san'at, sport va boshqa sohalarda yuqori natijalarga erishib kelayotgan bir guruh vohadoshlarimizni tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Davlat va jamoat tashkilotlari, aholi vakillari ishtirokida Termiz shahridagi "Bolajon" bog'i hududidagi mobil sahnada o'tkazilayotgan ushbu tadbirda viloyat hokimi To'ra Bobolov jamiyat hayotidagi samarali faoliyati, faolligi va tashabbuskorligi uchun taqdirlanuvchilarga minnatdorlik bildirib, hokimlikning faxriy yorlig'i va esdalik sovg'alarini topshirdi.

Tantanali marosim san'atkorlar ijrosidagi kuy-qo'shiq va raqslarga, Qorbobo, Qorqiz va ertak qahramonlari ishtirokida fotosessiyalarga ulanib ketdi.

